

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM
VÄZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INTSITUTI.

**“RANG TASVIR”
(Fanidan ma'ruzalar matni)**

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	140000 – O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani
Bakalavriyat yo`nalishi:	5140700 – Tasviriyy san'at va muqandislik grafikasi
Tuzuvchi:	o'qituvchi. S.T. Sa'diyev

Navoiy-2006

1-MA'RUZA. 2 SOAT.

MAVZU: «*Rangtasvir*» **tushunchasi.** Haqqoniy rangtasvirning vazifalari. Rangtasvir asarlarini yaratishda qalamtasvirning ahamiyati. Tabiatdagi va rangtasvirdagi ranglar. Buyumlarning xususiy ranglari. Rangning atrof havo muhitidagi holati.

REJA:

1. Talabalarga tasviriy san'atning eng muhim qismi bo'lgan rangtasvir haqida umumiy tushunchalar berish.

2. Rang va tasvirning uyg'unligi masalalarini atroflicha o'rganishga yo'naltirish.

3. Qalamtasvir rangtasvirning asosi ekanligini ular ongiga singdirish va rangtasvirlar ishlashga tayyorlash.

Adabiyotlar:

1. G.V. Beda. Jivopis. Moskva. "Prosveshenie". 1986. (3-15, 16-26 betlar).

2. Risunok. Jivopis. Kompozitsiya. (Xrestomatiya) Moskva. "Prosveshenie". 1989. (78-88 betlar)

3. Iabrazitelnoe iskusstvo. (Pod redaktsiey G.B. Smirnova) Moskva. "Prosvetsenie". 1977. (39-50 betlar)

MAVZUNING MATNI:

Tasviriy san'atda uning rangtasvir va grafika tushunchalari mavjud bo'lib, ular bir-biridan ishlanish yo'llari hamda uslublari, tasviriy vositalari bilan farqlanib turadi. Rang inson hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi hodisadir. U turli vaziyatlarda odamga har-xil ta'sir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni «quvonchli» va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etish mumkin bo'lgan «xira» deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardan rangning ana shunday xususiyatlarini lisooga olib, o'z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi ma'lum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta'sir etib fikrlar uyg'otadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. Shuning uchun tasviriy san'atning juda ko'p turlari va janrlarida rang hamda uni ishlata bilish juda katta ahamiyatga egadir. Ammo u qalamtasvirning muhim ekanligi bilan quvvatli ekanligi ma'lum haqiqatlardan eng asosiysi desak to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun qadimdan qalamtasvir chizishga rangtasvirning asosi sifatida qarash shakllangan. Ammo rang xususiyatlarini yaxshi bilish har bir tasvir chizishni o'rganuvchi uchun juda ahamiyatlidir.

Maktab fizika kursidan ma'lumki ranglarning deyarli hammasi spektrning asosiy uch rangini qo'shish orqali olinadi. Ular qizil, sariq, zangori ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo'shish orqali qo'shimcha ranglar olinadi. Masalan, qizil va zangorini qo'shish orqali binafsha, qizil va sariqni qo'shish orqali zarg'aldoq, sariq va zangorini qo'shish orqali esa yashil ranglarni hosil qilish mumkin. Ranglar tabiatan ikki xil xususiyatli: ilyq va sovuq bo'ladi. Ilyq ranglar qatoriga qizil, sariq zarg'aldoq va ularga yaqin ranglar, sovuq ranglar qatoriga yashil, zangori, binafsha va ularga yaqin bo'lgan ranglar kiradi. Shuningdek axromatik va xromatik ranglar ham bo'ladi. Oq, kul rang va qora ranglar axromatik ranglardir. Qolgan ranglarning hammasi xromatik ranglardir. Axromatik ranglar bir-biridan faqat och-to'qligi bilan farq qiladi. Masalan, oq, kul rang, qora, qoraroq, juda qora va boshqalar. Xromatik ranglar esa bir-biridan rang tusi ya'ni - qizil, sariq, ko'k, yashil, jigarrang va hokazb, och-to'qligi ya'ni - och qizil, to'q sariq, to'q qizil, och sariq kabi va to'yinganligi ya'ni yorqin, xiraliligi bilan farq qiladi. Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar «kontrast» ranglar deb ataladi. Kont bir-biridan keskin farq qilib, biri ikkinchisini yanada yorqin qilib ko'rsatadi. Masalan, yashil rang fonida qizil rang juda yorqin bo'lib ko'rinadi va aksincha qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishlashda rang garmoniyasini, ya'ni ranglar uyg'unligini bilish katta ahamiyatga ega.

Narsa va hodisalarni tasvirlashda moybo'yoq, tempera, akvarel, guash kabi bo'yoqlar ishlatiladi. Narsalarni bo'yoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon bo'lib, kishidan

ranglarning xususiyatlarini va ularni samarali, uquvli tarzda ishlatish usullari (texnikasini) bilishni taqozo etadi. Bo'yoqlar yordamida narsaning hajmi, fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirning asosini tashkil etadi. har bir narsani chizuvchi tasvirlar ekan u ranglarga jiddiy e'tiborini qaratishi kerak. Ana shunda rangning tabiatdagi ko'rinishi va tasvirdagi ko'rinishi farkdi ekanligini bilib olish mumkin. Chunki narsaning rangi bizdan uzoq-yaqinligiga qarab o'zgarib ko'rinadi. Buning sababi esa havo, atrof-muhitning predmet ko'rinishiga ta'siridandir. Qog'oz sathida ranglar munosabatlarini to'g'ri nisbatlarda topib ishlatish rangtasvirning haqqoniy aks etishida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan eng muhimi deb hisoblasak o'rinlidir. Akvarel bo'yog'ida ishlash ham o'z navbatida jiddiy o'qib o'rganishni, qattiq mashq qilishni talab etuvchi mashg'ulotdir. Buning uchun amaliy ishning o'zi kifoya qilmaydi. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta o'rganib borishni taqozo etadi.

Savollar:

haqqoniy rangtasvirning vazifalari nimalardan iborath
Rang va tasvir uyg'unligi deganda nimalarni
tushunamiz nimalarda namoyon bo'ladi.

Tayanch tushunchalar.

Rangtasvir Grafika Spektr turli xil bo'yoqlar yordamida shilanadigan surat, asarlar.qora qalam yoki qora bo'yoqda ishlanadigan tasvir, asar.Xromatik ranglar Axromatik ranglar Kontrast ranglar bo'yoq xillari — ranglarning xususiyatlari bo'yicha bo'linishi, yorug'lik nurlari maxsus prizmadan o'tkazilsalekranda spektr rapglari hosil bo'ladi, ular: qizil, sariq va boshqalar. bo'yoqning turli xillari (qizil, sariq, ko'k, binafsha, zarg'aldoq, jigarrang va boshqalar). qora va oq ranglar asosida topiladigan tuslar (qora, kulrang va boshqalar). bir-biridan rangi va tusi jihatidan keski ajralib turuvchi bo'yoq xillari. Masalan: yashil va qizil o'zaro kontrast ranglar hisoblanadi.

2-MA'RUZA. 2 SOAT.

MAVZU: Rangning xususiyatlari. Akvarel bo'yoqda ishlash texnikasi. Spektr. Ranglar doirasi haqida tushuncha. Rangning asosii xususiyatlari: rangning tusi, yorug'ligi, tiniqligi, to'yinganligi. Yorug'likni rangning ko'rinishiga ta'siri. Kontrastlik holatining (yorug'lik rangdorlik) tabiatda sodir bo'lishi. Akvarelda ishlash texnologiyasi asoslari va usullari.

REJA:

- 1.Amaliy tomonlari bilan tanishtirish.
- 2.O'quv mashq ishlarni metod va usullarini nazariy qismini tushuntirish.
- 3.Ranglarni ishlatish texnologiyasi bilan qurollantirish.
- 4.Nazariy asosda amaliyotni samarali bajarishga o'rgatish.
- 5.Ranglarning o'ziga xos xususiyatlari bilan chuqurroq tanishtirish.

Adabiyotlar:

1. G.V.Beda. Jivopis. Moskva. "Prosveshenie". 1986. (26-39 betlar)
- 2.Risunok. Jivopis. Kompozitsiya. (Xrestomatiya) Moskva.G`TTrosveshenie". 1989. (90-94 betlar)
- 3.Izobrazitelnoe iskusstvo. (Pod redaktsiey G.B.Smirnova) Moskva. "Prosvesh,enie". 1977. (61-64 betlar)
- 4.N.Tolipov. Rashtasvir asoslari. Toshkent. 1999. (4-12 betlar)

MAVZUNING MATNI.

Talabalar rangshunoslik nazariyasini ayniqsa puxta bilishlari shart. Shuning bilan realistik rangtasvirning nazariy asoslari ilmini o'zlashtirish va ayni paytda amaliy mashq qilish yatiijasida savodli rasm ishlash yo'llarini o'rganish mumkin. Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi pa tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan. Mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov Gelmgoltslar ranglarning mohiyatini ilmiy asoslarda tokshirganlar. M.V.Lomonosov fanda birinchi bo'lib asosiy ranglarni kashf etgan. I.Nyuton qator tajribalar o'tkazib, oq erug'likni ko'i rang ekanligini isbotlagan. Ekranda

spektr ranglarini hosil qilgap. Buning uchun Nyuton quyosh nurini qora pardaning kichik tirqishidan o'tkazib uning yo'liga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug'lik yig'indisi hosil bo'lgan. Ekranda spektr ranglari iaydo bo'lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zarg'aldok,, yashil, zangori, havorang va binafsha ranglar. XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgolts rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati - rang tusi, rangning och to'qligi va to'yinganlign asosida turkumlash kerakligini ko'rsatdi.

Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo'shsak, uing jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi yoki to'yinmaganligi deganda uning kul rashta nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushinish kerak. Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, earg'aldoq, sargash, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havo eang, zangori ko'k, binafsha ranglar joylashadi. Doiriping birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilari esa sovuq ranglardir. Buiday nomlanishiga sabab qizil, sariq raiglar olovni, qizigan temirni, cho'g'ni eslatza, havo rang, zangori, yashillar esa muznn, suvning rangini_eslatadi.

Ikkita spektr rangi ustma-ust tushirilsa, ranglar bir-biriga qo'shilib murakkab rang hosil bo'ladi. Qizil rang, havo rang va binafsha ranglar bilan qo'shilganda chiroyli tusdagi pushti, to'q qizil, safsar ranglarni hosil qiladi. Qo'shilganda oq 'rang beradigan spektrli ranglar qo'shimcha yoki to'ldiruvchi ranglar deyiladi. Chunki ular oq rang hosil bo'lgunga qadar bir-birini to'ldirali. Bunday ranglarga sariq, havo rang, qizil, zashori, yashil va binafsha ranglar kiradi. |^ Bo'eqlarning qo'shilishi bilan spektraviy ranglarning qo'shilishi orasida farq bor. Uchta asosiy pektraviy rang: qizil, yashil va havo rang qo'shilganda oq rang hosil bo'ladi. Asosiy qizil, sariq va havo rang bo'yoqlari qo'shilishidan esa qora rang hosil bo'ladi. Spektrning sariq va havo ranglari qo'shilishi natijasida oq hosil bo'ladi. Biroq sariq va havorang bo'yoqlarni aralashtirsak yashil rang hosil bo'ladi.

Demak, ikkita rangni optik aralashtirish natijasida oq yoki unga yaqin nim kul rang hosil qiladigan ranglar o'zaro to'ldiruvchi G`qo'shimchaG` hisoblanadi. Masalan to'q qizil va yashil, zangori va zarg'aldoq, qizil, sariq, havo rang, sarg'ish yashil va binafsha ranglar o'zaro to'ldiruvchidir.

Tasvir bilan chizilayottan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Tasviriy san'atda akvarel bo'yoqlar bilan ishlash salmoqli o'rinni egallaydi. Akvarel -rangtasvirning eng nozik turlaridan biri. Qadimdan akvarel o'chining nafisligi va ranglarning yorqinligi bilan ko'pgina rassomlarni qiziqtirib kelgan. Akvarel lotincha so'z bo'lib «suv bilan suyultirib ishlatiladigan bo'yoqlar» ma'nosini anglatadi. Akvarel tarkibiga bo'yoq moddasi G`o'simlik yoki ma'danlarning mayin qilib yanchilgan kukuniG` va biriktiruvchi modda sifatida olcha elimi, gletsirin va ozroq asal kiradi. Bular hammasi suvda osongina eriydigan bo'lgani uchun bo'yoqqa suv qo'shib suyultirib ishlatiladi.

Akvarelda oq rang ishlatilmaydi. Uning o'rnini oq qog'ozning o'zi o'taydi. Qokoz oppoq, etarli darajada qalin va yuzasi g'adir-budir bo'lishi zarur. U agar juda silliq bo'lsa, sathida ranglar etarli darajada yotmaydi. Narsa va buyumlar tasvirlarini bo'yash jarayonida umumiyydan xususiyga yoki aksincha xususiydan umumiyga qarab boriladi, nihoyat ish yaxlitlash bilan yakunlanadi.

Savollar:

1. «Spektr» nimah
2. Ranpshng asosiy xususiyatlari nimalardan iborath
3. Akvarel' bo'yog'i haqida iimalarni bilasizh
4. AkvarelDa tasvir ishlashda qanday usullar qo'llaniladih

Tayanch .tushunchalar.

Asosiy ranglar,Ranglar doirasi , Issiq raiglar, Sovuq ranglar, Qo'shimcha ranglar.

- tabiatda mavjud bo'lgan farqi yaqqol bilinib turuvchi, asosiy — sariq, qizil va zangori ranglar.
- ranglarni tusi, rangi, xususiyatlari bo'yicha ajratib olish uchun tuzilgan jadval-sxema.
- (iliq ranglar deb ham aytiladi) olovni, quyoshni eslatuvchi sariq, to'q sariq, sarg'ish, zarg'aldoq, qizil rang kabilar.
- muz, qor, suvni eslaguvchi havo rang, zangori, ko'kish yashil, to'q binafsha kabi ranglar.
- qizil, sariq va zangori bo'yoqlarning aralashuvidan hosil bo'ladigan omuxta rapglar.

3-MA'RUZA. 2 SOAT.

MAVZU: Axromatik va xromatik rapglar. Asosiy va qo'pshmcha ranglar. Iliq va sovuq ranglar hamda ularning rangtasvirda qo'llanilishi- Ularni bo'lib to'g'ri ishlatishning nazariy hamda amaliy jihatlarini.

REJA:

1. Talabalarga rangtasvirning eng muhim jihatlarini, rang munosabatlariga oid bilim, ko'nikmalarni berish.
2. Rangtasvir texnologiyasi.
3. Bo'yoqlarning churlari, xususiyatlari.

Adabiyotlar:

1. G.V.Beda. Jivopis. Moskva. "Prosveshenie". 1986. (58-63, 73-80 betlar)
2. Risunok. Jivopis. Kompozitsiya. (Xrestomatiya) Moskva. "Prosveshenie". 1989. (95-104 betlar)
3. Izobrazitelnoe iskusstvo. (Pod redaksiyey G.B.Smirnova) Moskva. "Prosveshenie". 1977. (44-49 betlar)

MAVZUNING MATNI:

Rangtasvir ishlashda uning qonun-qoidalarini, usul va texnologiyasini o'rganish muhim ahamiyatga ega vazifalardandir desak xato bo'lmaydi. Shunday zarur shartlar qatoriga axromatik va xromatik ranglar haqidagi bilimlar ham kirishi tabiiydir.

Ko'zimiz ko'ra oladigan tabiatdagi hamma ranglarni shartli ravishda ikkiga: axromatik va xromatik ranglarga bo'lish mumkin. Oqdan to'q qoragacha bo'lgan ranglar axromatik ranglarga (oq, kul rang, qoramtir, qora, to'q qora) qolganlari esa xromatik (qizil, sariq, ko'k va hokazo) ranglarga kiradi.

Xromatik ranglar o'z navbatida, shartli ravishda yana ikkiga, issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglarga olov, quyosh, qizigan narsalarning rangini eslatuvchi qizil, sariq, zarg'aldoq ranglar kiradi. Muz, havo, suvlarning rangini eslatuvchi ko'k, moviy, binafsha ranglar sovuq ranglarga kiradi. Yashil va binafsha ranglar goh issiq, goh sovuq ranglarga kirishi mumkin. Chunki yashil rang sariq va ko'k ranglarning aralashmasidandir. Binafsha rang esa qizil va ko'k ranglarni aralashmasidan hosil bo'ladi. Ko'rinib churibdiki, bu ranglar issiq va sovuq ranglarning aralashmasidan hosil bo'lgan. Aralashtirishda issiq rang miqdori sovuq rang miqdoriga nisbatan ko'proq bo'lsa, hosil bo'lgan rang issiq rang qatoriga, sovuq rang miqdori ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga o'tishi mumkin. Xuddi shunday binafsha rangda qizil rang ko'proq bo'lsa issiq, ko'k rang ko'proq bo'lsa sovuq ranglar qatoriga kiradi. Demak o'quv mashg'ulotida rangtasvirni ishlashda quyilmadagi narsa va buyumlarning yorug'-soya nisbatlari, shuningdek rang nisbatlarini ham ochib aniq ko'rsatish muhim ahamiyatga ega.

Ranglarning tabiiyligini tasvirda to'g'ri bajarish aicha qiyin ish hisoblanadi. Bunga jiddiy mehnat, nozik did va zo'r mushohada orqali erishish mumkinki. Ayniqsa natyurmortdagi narsalarning och-to'qlik darajalarini farqlashga, unda i-birlikni tushunishga o'rganish uchun i-pyurmortni bitta rangda tasvirlash katga ahamiyatga ega usulda rasm ishlash keyinchalik qiyin iatyurmortlarniyat rangli tasviray bajarishga o'tishni ancha osonlashtiradi. Va rangda yozish usuli «grizayl» deb ataladi.

Grizayl usulida rasm ishlash turli ranglar vositasida ish usuliga o'gish uchun tayyorgarlik bosqichi bo'lib, unda mo'yqalamni ishlatish yo'llari va akvarel bo'yoqlari xususiyatlarini o'rganish uchun imkoniyyat yaratadi. Bu texnika bilav bir nechta natyurmortlarni tasvirlab

o'rgangandan I barcha rang xillari bilan ham natyurmort ishlash ancha oson bo'ladi.

Natyurmortlar ko'pincha xonalarga qo'yib ishlanadi. Ammo ba'zan uni tabiat qo'ynida tashkil qilib tasvirlashga ham to'rri keladi. Shunday paytda natyurmortni ishlashdai avval uning rang xususiyatlarini tahlil qilib, tushunib olish muhimdir. Chunki xona ichiga qo'yilgai natyurmortga derazadap tushayotgan nur' Pardalarning yorug' qismida sovuq rayaglarni beradi. Buyumlardan tushayotgan soyalar esa aksinchy, plmq, issiq bo'lib ko'rinadi. Ochiq havodagi, tashqaridagi chizilayotgan narsalar bunint aksidir, ularning soyasi sovuq. yorug' qismi esa iliq bo'lib ko'rinishi mumkin. Ana ogunday holatlarni diqqat bilan kuzatib, so'ng e'tnbor bnlan tasvirlash ish sifptining yaxshi bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ma'lumki ranglarni ko'rish va idrok etish qobiliyati asta-sekin mashqlar orqali shakllanadi. Bunda akvarel bo'yoqlar nomldrini aniq bilib olish va ularni o'z o'rnida jo'yali qo'llash muhnmidir.

Akvarel bo'yoqlari 24-16 xil rangli to'plamlar holida bo'lodi. Ularni ishga tayyorlash vaqtida har birining ustiga yozib qo'yilgan yorlig'ini asta ko'chirib olib, bo'yoq solingan plastmassa idishchaning tagiga yopishtirib qo'yish va nomlarini eslab qolish kerak. Ular quyidagicha tartibda bo'lishi mumkmn. Ya'ni: limon raig kadmiy, sariq kadmiy, och 'oxra, tabiiy siena, oltinsimop sariq, zarg'aldoq kadmiy, qizil oxra, kuydirilgan siena, och qizil, guldor, qizil kranlak, karmin (erkii qizil), binafsha kraplak, ultramariya, ko'k kobalt, xavo rang, zumrad yashil, yashil permanent, sabza (yashil), tabiiy umbra (to'q jigar ravg), jigar rang mars (och), kuydirilgan umbra (jigar rang), sepiya (chiroylya to'q jigar rang), qora.

Tabiatdagi narsalarning aniq rangipi belgilab ko'rttaligan tayyor bo'yoqlar mavjud emas. Ammo etuk rassom ranglariing o'zaro ta'siri va ko'riish holatlarini idrok ITib ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda har qanday narsai ham aks eggara oladi. Tasvirda shupday joziba va hayotiy qaqiqatga lnshish uchun ragsomga ranglar nisbatini bilish, rapglar orasida qandaydir bitga rangvnng turli xpl tovlanishini hisobga olib ishlata olishiga yordam bergai. Masalan, olov rang qizilni kuchliroq «yal-yal» yonadigai qilib tasvirlash uchun shu rang atrofida varsolarning soyasinya ko'kimtir, havo rang, yashil, zlngori tuslamda beriladi. Tasvir bilan chizilayotgagg narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang ^atlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Bunga erishish uchup rangshuNoslik fayaining asoslarini chuqur o'rganish va amaliy ish jarayonida bu masalalarga qayta-qayta murojaat qilish kerak. har xil bo'yoqlar bilai (akvarel, guash, moybo'yoq) natyurmortlarni tasvirlash uchun yuqorida qayd etilgan tajribalarni o'tkazib ko'rish, bo'yoqlarning texnologiyasi xususiyatlarini yaxshn bilish, ularni ishlatish usullarini o'zlashtirish uchun ko'ilab mashqlar bajarnsh tavsiya etiladi.

Tasviriy san'atda akvarel bo'yoqlar bilan ishlash salmoqli o'rinni egallaydi. Vunga sabab maktabda rasm ishlashni o'rganishda akvarelning etakchi rol o'ynashidir. Shuning uchun uni o'qitayotgan o'qituvchinYaNT o'zi ham shu sohani puxta egallagai bo'lishi zarur.

Savollar:

- 1.Axromatik va xromatik ranglar deganda iimalarni tushunasiz?
- 2.Asosiy va qo'shimcha ranglar to'krisida pimalarni bilasiz?
- 3.Bo'yoqlarning turlarn, ranglarning xususiitlarn to'g'risida qanday ma'lumotlarga egasizh Ularning texnologiyasi haqidachih

Tayanch tushuichalar.

Ranggasvir — rashtasvirlar ishlashda texnologiyasi foyd.xlaniladigan jihozlar,bo'yoqlar va boshqalar, shupingdek tasvir ishlaptni yo'llari, usullarini o'rgaiadigan fan.

Rang nisbatlari — rapgping yorhnnlpgi darajasi bo'yicha farqlari, o'zaro ajralib turish xususiyatlaripi aniqlash.

Grizayl— (frants. spG`aShe, st - kul rang)
bir rangning har xil (6ch—to'q) tuslari yordamida ishlanadigan tasvir.

Tus -srug'lik miqdori, rang tusi kabi
manolarni anglatadi, badiiy asarda ranglar birikmasiiipg umumiy tusi, yorug'roq yoki xiraroq ekanligi tushuniladi.

4-MA'RUZA- 2 SOAT.

MAVZU: Guash bo'yog'oda ishlashning yo'llari. Guashda vazpfa bajarishda amalga oshiriladigan muhim ishlar. O'ziga xos xususiyatlar. Guash bo'yog'ida ishlash, unga tayyorgarlik va texnologik jarayonlar.

REJA:

1. Guashda ishlashning texnologik jarayonlari bilan atroflicha tanishtirish.
2. Bo'yoqning o'ziga xosliklari to'rtida malumot berish.
3. Guash bilan ishlashni o'rgatish, amaliy ishga yo'llanma berish.

adabiyotlar:

1. G.V.Beda. Jivopis. Moskva. "Prosvesh,enie". 1986. (NO-83 betlar)
2. Risunok. Jivopis. Kompozitsiya. (Xrestomatiya) Moskva. "Prosvesh,enie". 1989. Izobrazitelnoe iskusstvo. A.A.Unkovskogo) Moskva. "Prosveidenie". 1977. (48-50 betlar)

MAVZUNING MATNI:

Guash bo'yog'i akkarel bo'yog'ining tamoman aksi bo'lib, u kabi tiiiq, jar.PIGDor tus bermaydi. Ran^lari yorug'likni k)ltanligi sababli uning tagidagi qog'oz ko'rinib, sezilib turmaydi. Tarkibi esa akvarelniki singari - bo'yoq kukuni va uni bog'lovchi moddalardan iborat. Ammo ular maxsus yog'och elimi bilan mo'tadil nisbatlarda aralashtirilgan bo'ladi. Guash bo'yog'iing yana bir muhim jihati uning oq bo'yoq bilan aralashtirib ishlatilishidir. Shuning uchun uning ranglari unchalik jarangdorlik kasb etmaydi. Bo'yoqni ishlatish uchun mo'yqalamlar ham maxsus tanlanib olinadi va ular juda yumshoq bo'lmasligi, bir oz dag'alroq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tasvir ishlanadigan sath, ya'ni qog'oz yoki karton ham silliq bo'lmagani yaxshi. Uning yuzasi iloji boricha elimli qoplama (grunt) bilan ishlov berilgan bo'lishi zarur. Shunda uning sathiga guash bo'yog'ini yaxshi surtish mumkin bo'ladi. Guash ko'nincha grafik ishlarni, bezaklarni, plakatlarmp ishlashda va qisman rang-tasvirlarni bajarishda foydalaiiladigap, suv qo'shib ishlatiladigan, tez quriydigap bo'yoqdir. U bilam tasvirlar bajarishning murakkablngp shuidakn bo'yoq surtilgan paytida to'q, qurigandan keyip zsa ochlashnb ko'rinishidir. Shu jiqatinp hisobga olib turilmasa rapglar orasidagp muvofiqlikni ushlab turish ancha qnyin kechadi. Bunnng uchun odatda har bnr surtiladigan asosiy rayaglar alohida-alohida maxsus idyshchalarida tayyorlanib olipib, so'ng upga bir oz boshqa qo'shimchalar aralashtirib tasvir ishlanadp. Ganglarni ishlatishda, uniig to'q-ochligi, rang tuslarinpng qanday toiilganini doimo tekshirib, bilib turish uchun bir bo'lak qog'ozga tayyorlayagan aralashmani surtib aniqlab, so'ng qo'llansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Guash bo'yog'ida juda ko'i o'tmish rassomlari ham asarlar yangailiklari ma'lum. Ularning ajoyib-ajoyib natyurmort, manzara, teatr bezaklari, portret, ilakatlari jahon tasviriy san'ati xazinasidan o'rnn olgan. Ammo shunisi borki bu noznk, saql'pshshi aicha qiyip bo'lgan ishlarning ayrimlari, Ayniqsa quyuq qilib ishlanganlarining bo'yoqlarn o'chib, to'kilib ta'mir talab bo'lib qolganligi sir emas. Guash bo'eg'ida tasvirlarni bajarganda iloji boricha har bir rang tusi uchun alohida-alohida mo'yqalam tutgan ma'qul. Shunda rapglarnp tiniq va toza, jozibali chiqishiga zrishiladi. Mo'yqalamlarniig purli o'lchamlardagisi,va yumaloq hamda yapaloq ko'rinishdagilaridan

foydalaniladi. Ayniqsa, yanaloq mo'yqalam bezak ishlarida hamda tezkor ranglavhalarii ishlashda juda qulaydir. Guash bo'yokida ranglavha va ayniqsa portretlar hamda odam tana qismlarini tasvirlash, nozik rang tovlanishlarini berish qiyin ishdir. Buning uchun ancha muncha mahorat, bilim, tajriba kerak bo'ladi. Tasvir ishlashning yo'l-yo'rig'i, usullarini puxta egallash esa ko'p amaliy mashg'ulotlarni talab etaditan jarayondir.

Katta-katta monumental asarlarning eskizlari hamda kompozitsiya loyihalarini, bayram munosabati bilan tayyorlanadigan suratlarni ham guashda bajarish qulaydir. U bilan keng qamrovli, mahobatli tasvirlar tez ishlanadi.

Rangtasvir ustalarining asarlarini kuzatar ekanmiz, ularniig har biri texnologiyasi hamda uslubi jnhatidan naqadar rang-barapg ekanligini ko'ramiz va rassomlar mahoratiga tatberamiz. Chunki ijodkorlar bo'yoqning tasvir imkoniyatlarini ustalik bilai qo'llaganlar. Asarlarning biri

quyuq bo'yoq qatlamidai foydalanib ishlangan bo'lsa, boshqasn esa juda nozik, yupqa qatlamda bajarilgan. Shunday asarlar xam borki, ular murakkab aralash texnikada bajarilgan. Ya'ni ham akvarel, ham guash texnologiyasi ustalik bilan qo'llangan. Bunday mahoratln ishlaigan asarlar qach-origa rus rassomlari I.Serov, K.Yuon, V.Kustodievlariing ijod namunalarini qo'shishimiz mumkin. Shunisi ham qiziqarliki, ayrim rassomlar akvarel bo'yog'ida yaratgan asarla^shda guashiing faq,lt oqini ishlatganlar va bu yaxshi samara berganlpgi ko'rinyb turadi. Bupday asarlarga S.Gerasimov ijodiga mansub nshlarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Guash. bo'yog'ining keyinsh paytda yangi kashf etilgan tupi ham mavjud bo'lib, unipg iomi «fluorestsentli guash» deb ataladi. Uning ijobiy tomoni sun'iy nur tushirilganda erqinlik kasb etib, «yal-yal» yonib ko'rinishidir. Chunki uning ximiyaviy asoslari ultrabinas}}sha, binafsha, ko'k, yashil nurlardan g'ayrioddiy yorqin va tabiatdagidan ikki-uch ma^pa kuchlm rayagda tovlanib ko'rinadi. Shu sababdan bunday bo'yoq turi teatr bezakchiligida keng qo'llanmoqda. Uning ta'sirchan yarqirab ko'rinishi uchun odatda kvarts lampalari nuridan ham foydalanish rasm bo'lmoqda.

O'quv-mashq ISHLarni bajarishda, ayniqsa natyurmortlarni ishlashda guash bo'yog'idan foydalanish juda ham qo'l keladi. Uni moybo'yoqtasvirlar ishlashdan avval o'rganilsa maqsadga muvofiq keladi. Shuningdek turLI komnozitsiyalarshshg eskizlarini o'quv-mashq namupalaripi guash texkikasida bajarish qulaydir. U bilan katta-katta satillarni yaxlit qilib bo'yash, tez ishlash mumkin.

Savollar:

- 1.Guash bo'yogining asosiy, o'ziga xosligi nimalarda namoyon bo'ladi?
- 2.Guashda tasvirlar ishlash yo'llari, texiika v-1 texnologiyasi qaqida nimalarni bilasiz?
- 3.Guash bo'yoki asosan qaysi san'at turlarida va janrlarida ishlatiladi?

I

Tayanch tushunchalar.

Guash elimli bo'yoq turi bo'lib, u suvda eriydi, bezak san'atila: plakat, panno, yozuvlarni Chbajarishda ko'prpq qo'llanadi, Elimli asosida elim bo'lgai, rasm ishlash uchun qoplama mata yoki kartoiga ishlov berib surtish uchun tayyorlangan qarishma (grunt, gruntovka).

Plakat— grafika ean'atining bir tarmog'i, u tezkorlik bilan ishlanadi. Targ'ibot-tashviqot. reklama vazifalarn uchun xizmat qiladi.

Monumental— maqobatln. kepg ko'lamli, katta o'lchamlp tasviriy, bezak ishlarita nisbatan shu so'z qo'llapadi.

Aralash — bnr nechta yoki ko'p tasviriy vositalar, texnika texnik imkoniyatlar qo'llab tasvirlar yaratish.

5-MA'RUZA. 2 SOAT.

MAVZU: Rang gammasp. Rangtasvirlarda fazoviy xolatlarni aks ettprish. Rang uyg'unligi (kolorit) qonuniyatlari.' Rangtasvirning yaxlitligi. Rangtasvirni tashkpl etish, pfodalashda ranglp yog'du, shu'la (refleks)larning roli.

REJA:

- 1.Ranglarni ishlatish, ularni turli ifodaviy usullarini o'rgatishning nazariy asoslarini bayon etish.
- 2.Rangtasvir texnologayasiga amal qilishni o'rgatish.
- 3.Rang uYRunligini ta'minlash usullarini qo'llash yo'llarini ko'rsatish.
- 4.Shakllarni yaxlit ko'rinishida rangning o'rni masalasini nazariy jihatdan tahlil qilishga o'rgatish.

adabiyotlar:

1. G.V.Beda. Jivopis. Moskva. "Prosvexpshnie". 1986. (37-41, 57-60 betlar)
- 2.Risupok. Jivopis. Kompozitsiya. (Xrestomatiya) Moskva. "P)yusve1tsenie". 1989. (104-107 betlar)

3. Izobrazshelnoe iskusstvo. (Pod redaktsiey A.AUnkovskogo) Moskva. "Prosveshenie". 1987. (54-57 betlar)

MAVZUNING MATNI

Ma'lumki tsviriy san'atning barcha turlarida rang muhim rol o'ynaydi. Rang gammasi deganda tasvirlarni ishlash jarayonida qullanadigan tus va ranglarning uzaro muvofiq kelishini tushunamiz. Bu holatni quyidagi jonli misol bilan izoxlasak o'rinlidir, masalan, musiqa san'atidagi ovozlarni ma'lum intervallar yordamida belgilanadi va foydalaniladi. Ular o'z holicha alohida-alohida, bir-biri bilan uyg'unlashtirilmay chaliisa ma'nosiz, uzuq-yuluq ovozlardan iborat bo'lib qoladi. Agar ma'lum balandlik va targibda uyg'unlashtirilib chalinsa yoqimli bo'lib eshitiladi. Ma'noli tasavvurlar, zavq berish qudratiga ega bo'ladi. Ularning sifati ovozlarni o'rtasidagi vaqt masofasi, ovozlarni yo'g'on- ishchkaligiga ham bog'liq. Ravvgas nirlarni ishlash jarayoni ham xuddi keltirgaya misolimiz kabi, ya'ni har bir rang va tusning o'z yorqinligi va go'q-ochligi mavjud. Ularpi nechog'lik bir-birsha mosini topib, o'zaro muvofiq tarzda qo'llasak shunchalik tasvir sifatida aksini bsradi, ma'no tashish quvvatiga ega bo'lsidi. Agar bo'oqlarni tasvir ob'ektiga zid holda birini juda yorqip, boshqasini nursiz qilib o'zaro bog'liqligiga moslamay ishlatsak, rasmtasvir ma'nosiz va ta'sirsiz chiqib qoladi. Ranglarni yorqinlik kuchi va to'q-ochligini xuddi tabiatdagidek qilib olish va tasvirlarni nshlashda qo'llash juda qiyin. Shu sababdan ham ular ochroq yoki to'qroq gammalarda tasvir ob'ektlariga MOS tarzda, ma'lum nisbatlarda qilib olinadi. Mo'ljalda olingan gammaga moslab tasvirning eng to'q va eng och qismlari darajasi ham belgilab olinadi. Shunda nshlangan tasvirlar yaxlitlik, qiziqarlilik kasb etadi. Har bir narsa va hodisa tasvir etilari ekani, uning xuddi aslidagidek qilib aks etgprish mumkin emas. Buni ko'pchilik san'at nazariyotchilari va rassomlar, amaliyotchilar doimo ta'kidlab keladilar. Zero tabiatni gasvirlash undan olingan tasavvurning qay darajadalmgga bog'liq. Muhimi tabiat ko'rinishi realligi tasavvurni obrazli tarzda ifoda etsa, ishonarli bo'lsa, shuning o'zi kisiyuya.

O'zbek rassomlari ichida ham rangga juda e'tiborli munosabatda bo'ladigan, uning go'zal uyg'unligini ifodalab bera oladiganlari ko'p. Bunday usta, mahorat egalari mo'yqalam soxiblaridan M.Nabiev, R.Ahmedov, R.Choriev. V.Burmakin, B.Boboev, J.Umarbekov, A.Mirzaev, A.Ikromjonov, M.Toshmurodov, A.Nuriddinov, O.Qozoqov va boshqalarning nomlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ularning ko'plab ajoyib asarlari fikrimizni tasdiqlab turibdi.

Ma'lumki tasvir ishlashni rang vositasida ishlash jarayonida atrof-muhit holati muhim ahamiyatga ega. Chunki chizilayotgan ob'ektga yorug'lik manbai, atrofidagi boshqa buyumlarning ta'siri kuzatiladi. Ular o'z rangi, tush bilan o'zaro muvofiq yoki nomuvofiq bo'lishi mumkin. Rassom ana shunday o'zgarishlarni chuqur anglab, tahlil qilib, so'ng ifoda etishi kerak. Aks holda tasvir jonsiz, ta'sirsiz chiqib qoladi. Talaba, o'rganayotganlar uchun bunday holatlarni hisobga olib tasvirlashda natyurmortlar juda qo'l keladi. Chunki unda buyumlardagi soya-yorug'lar, shu'lalar, rang tuslarini o'z yonidagi nishonlari yaqqol ko'rinib turadi. Ular gasvir shaklini, yorqinligini, yaxlitligini ko'rsatishda xizmat qiladi. Natyurmortni qanday xonada qo'yilganligi ham uning yorug' yoki qorong'uligi, yoki derazadan qay holatda va burchak ostida chushayotgani ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu (»blik») va rapgli shu'la (»refleks») natyurmortdagi deyarli barcha predmetlarda aks etib churadi. Ayniqsa, yaltiroq sirtli narsalar sathida bu yaxshi sezilib turadi. Chunki ular yorug'likni yutmaydi, balki yog'dulanib qaytaradi. Nurni o'zida singdirib yuboradigan sirtli narsalarda aks: shu'lalarni ba'zan sezib olish qiyinroq bo'ladi. Ammo ularni talaba ilg'ab olishni va tasvirlashni doimo mashq qilishi kerak. Buning uchun har bir o'rganuvchi, rassom o'z bilimini ham iazariy, ham amaliy jihatlarni kitob, qo'llanmalardan o'qib rasmtasvir namunalarini muzey va ko'rgazma zollarida ko'rib tajriba to'ilashi kerak.

Savollar:

1. Rang gammasi degan ibora nimalarni bildiradi

2. Rangtasvirning yaxlitligi qanday vositalar yordamida ta'minlanadi
3. «Kolorit» so'zi nimani ifoda etadi
4. Shula va «refleks» ning farqi nimadur

Tayanch tushunchalar.

Rang gammasi — tasvirdagi etakchi rol o'ynovchi, xususiyatini belgilovchi ranglar majmui. Kolorig-tasvirdagi barcha rang elementlarining o'zaro bog'liqligi xususiyati, uning rang qurnishi,

Refleks — yorug'lik yoki rang shu'lafi (u biror narsaga atrofidagi narsalardan yog'dulanib tushadi, akslanadi, Shu'la — soya-yorug'lik unsuri, predmettshg yorug' qismidagi epg ochiq, Yiltirab turgan joyi. U narsaning shakl-shamoyili va yorug'lik iuri holatiga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

6-MA'RUZA. 2 SOAT.

MAVZU: MOYBO'YOQ RANGTASVIR TEXNIKASI.

Ashyolar: asos sath, qoplamalar (gruntlar) va ularni qo'llash, foydalanish. Bo'yoq taxta (iolitra), bo'yoqlar, eritgichlar, mo'yqalamlar va ulardan foydalanish qamda to'g'ri saqlash. Parvarish qilish. Matoni romga jo'yali qilib torpin va qoplama surtish. «Aessirovka» va quyuq surtmalar bilan ishlash.

REJA:

1. Moybo'yoq rangtasvir texnologiyasi bilan atroflicha tashiptirish.
2. Uni tashkil etish choralarini kursatish va ashyolardan unumli foydalanish yo'llarini o'rgatish.
3. Moybo'yoq bilan ishlashga tayyorgarlikning nazariy hamda amaliy jihatlaridan xabardor qilish.

Adabiyotlar:

1. G.V. Beda. Jivopis. Mskva. "Prosveshenie". 1986. (83-93 betlar)
2. Risunok. Jivopis. Kompozitsiya. (Xrestomatiya) Moskva. "Prosveshenie". 1989. (107-110 betlar)
3. Izobrazitelnoe iskusstvo. (Pod redaksiyey A.A. Unkovskogo) Moskva. "Prosvepdepie". 1987. (42-58 betlar)

MAVZUNING MATNI:

Moybo'yoqda tasvirlarni ishlash rassom uchun ham, endi o'rganayotgan talaba uchun ham juda qiziqarli mashg'ulotdir. Lmmo bu mashg'ulotning jiddiy Qiyinchiliklari ham mavjud bo'lib, u moybo'yoq rangtasvir -texnologiyasi bilan ham bog'liq. Chunki moybo'yoq bilan ishlash ma'lum tayyorgarlikni talab etadi. Ularga bo'yoqlarni tanlash, ish uchun sath (mato)ni tortib tayyorlash, uni qoplama (grunt) bilan yopish, mo'yqalamlarni tanlash, eritgichlarni tanlab olish kabi zarur tadbirlarni kiritish mumkin. Moybo'yoq tasvirlar ishlashni o'rganish natyurmortlarni chizib mashq qilish orqali o'zlashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Moybo'yoqli natyurmort rangtasvirini ishlash jarayonining ayrim gomonlarni akvarel texnikasiga o'xshash. Chunki bunda ham avval qalamtasvir chizib olinadi. Agar suvbo'yoqda ishlash uchun tasvir mukammalroq, mayda detallari bilan batafsil chizib olinsa, moybo'yoqda ishlash uchun esa chizmatasvir umumlashtirilib eng asosiy narsalar aks ettiriladi. Buning sababi moybo'yoqda ishlash jarayonida batafsillik mo'yqalamda ham bajarilishi mumkinligidandir, Moybo'yoqda biror rangni ochlashtirish uchun unga oq rang kerakli darajada qo'shiladi. Shunisi ham borki oq. rang qo'shilgach bo'yoqning yorqinligi ma'lum darajada kamayadi. Buni o'quv mashqlarini bajarish jarayonida albatta hisobga olish lozim. Akvarel texnikasi kabi jihatlaridan biri ish jarayonini asosiy uzoq mudda'gli vazifani boshlashdan avval ranglavha, chizmalavhalar ishlab olinishidir. Shunda bo'lajak rangtasvirning asosiy xususiyatlarini tajriba qilib ko'rib o'rganish, asosiy ishda uni qo'llash mumkin bo'ladi.

Moybo'yoq tasvirlarini ishlash uchun maxsus ashyolardan foydalaniladp. Ular romga tortib tayyorlab, qoplama tortib olingan (gruntlangan) mato, moybo'yoqlarning kerakli xillari, bo'yoqtaxta (politra), mo'yqalamlarning turlicha katgalikdagi xillari, «mastixin» va

eritgichlardan iboratdir.

Romga tortilgan mato qanday tayyorlanganligi tasvir sifatini belgilaydigan omillardan biridir desak xato bo'lmaydi., Uning qonlamasi (grunti) ikki xil tarzda tayyorlanishi mumkin. Biri moyli qoplama bo'lib u quyidagichadir: 5 foizli elim (jlatin, baliq yoki duradgorlnk elymi) arolashmasi shunga teng hajmdagm bo'rga qo'shiladi. U bilan mato sathi qoplanadi. Bir marta surtilganlan so'ng qoplama bo'yoq qatlami tayyo[»lab olinadi. U quyidagi tarkibda, ya'pi - maxsus oqartirilgan (ofgobda toblangan) rashtasvir yot, quruq oq bo'yoq kukunidan qo'shib tayyorlangan aralashma bo'ladi, Yog' va kukunning nisbati shunday bo'lish kerakki u tayyor, maxsus idishga solib chiqariladigan moybo'yoqlardan euyuq bo'lmasin. Shuida uni bemalol matn» sathiga «mastixii» bilan tokis qilib surgib chiqish mumkin bo'ladi. 1-2 hafta quritilgach g'adir-budir erlari qumqog'oz bilan yaxshilab tekislapodi va skipidar aralashtirilgan moyli qoplama yassi, katta mo'yqalam («fleyts») bilan tekis qilib bo'yab chiqiladi. Bunday usulla tayyorlanaligan mato 2-3 oy mobaynida o'qitiladi. U saqlangan joy iliq va yorug' bo'lishi shart.

«Elimli qoplama» deb yuritiladigan qoplamaning ikkinchi xili quyidagicha tayyorlanadi. 1 l. Suvda 50-60 gr. jelatin eritiladi va unga 15 gr. glitserin qo'shiladi. U matoga 1² marta surtiladi. Birinchi marta surtilgani qurigach qumqog'oz bilan mato usti tekislanib olinadi, so'ng ikkinchisi surtiladi. Shundan so'ng elim aralashmasi bo'r va oq bo'yoq kukuni bilan teng nisbatlarda 40 S darajali issiqda eritiladi. Agar uning garkibi quyuk bo'lib qol1-udek bo'lsa, o'Ts1a elim aralashmasidan qo'shiladi. Bunday qoplama 2-3 marta qavatma-qavat qilib surtiladi. Ular oralig'ida qurishi uchun ma'lum vaqt bo'lishi shart.

Qoplamalar yana ma'lum rang tusida ham tayyorlanishi mumkin. Ular ko'proq ijodiy ishlarni bajarishda va kompozitsiya yaratish jarayonlarida qo'l keladi. Moybo'yoqda o'quv-mashqlarni bajarishda rang xillaridan ham unumli foydalayish galab egiladi. Vazifalarni ishlaganda juda ko'p rang xillaridan bilib-bilmay ishlatish yaxshi samara bermaydi.

Tabiagda ettita asosiy rang (bo'yoq) borligi ma'lum. Ular qizil, iorag' lji, sariq, yashil, havo rang, ko'k, binafsha ranglardir. Bo'yoq aralashtiriladigan taxtada (politrada) bo'lishi juda -zarur rang xillari esa qizil, sariq, ko'k bo'yoqdir. Chunki ularni boshqa qolgan asosiy rang-tuslar vositasida hosil qilib bo'lmaydi. Bularning aralashmasidan juda ko'p, .deyarli barcha ranglarni chiqarish, hosil qilish mumkin. Ulardan hatto qora rang tusini ham topish mumkinligi sir emas. Faqat qaysi rangni bir-biriga qancha miqdorda aralashtirishni bilish kifoya. Buning uchun esa albatta tajriba va uquv bo'lishi kerak.

Shuni ham ta'kiddab o'gish kerakki tabiatda absolyut oq va absolyut qora ranglar mavjud emas. Ularning barchasi qandaydir bir ^ang tovlanip^ida bo'ladi. Masalan, qoraning jigarrangga, ko'kka, yashilga moyil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Oq rangning turli nozik tuslarga moyilligi ham tabiiy. Bunday rang va tuslarning hamda ularning to'q-ochliklarnni tonib tasvirlash uchun moybo'yoqda ishlash texnikasi juda qulaydir. Shu imkoniyatlarning kengligi bilan u boshqa bo'yoq turlaridan ajralib turadi.

Moybo'yoq texnikasida rangtasvirlar bajargand.1 mo'yqalamlarning qanday turlari va o'lchamlardagilarini ishlatish ham muhimdir. Ularni tanloy bilish ko'i foyd.1 keltiradi. Ma'lumki natyurmortlarni, katga ishlarnn bajarishda yapaloq va dagal mo'yqalamlarni qo'llash ish sifatini, ta'sirchanliginp ta'minlaydn.

Moybo'yoqlarga suyultiruvchi, erituvchi vositalar qo'shno ishlatiladi. Ular moyli va moyi kamaytirilgan bo'lnshp mumkin. Moyliroki bo'yoqni sekin qurishi uchun yaxshi vosita bo'lib, u bila;t foydalanilgan paytda ranggasvir sekin quriydi. Shu sababli uaoq muddatda bajariladig'ap tasvirlarni ishlashda qulaylpk yaratadi. Bunday eritgichlarn ba'zan lak ham aralashtirib ishlatilitim mumkpn, shundai qilinganda ishning bo'yoq qatlami tezroq quriydi va bo'yoqnipg moyi matoga shimilib ketishining oldi olinadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, moybo'yoq texnikasida rang qoriladigap maxsus taxtacha (politr1)pipg yuzasid.1 bo'yoqlarni qanday joylashtnrish masalasi ham mux,im. Und.1 bo'yoqlar issiq-«oiuq ranglarga ajratib, shu bplan birga to'q-ochligiga qarab ajratib joylapggirnlishi mumkin. Oq bo'yoq odatda o'rtada ski ranglar qatornning boshlanishida bo'ladm Agar har safar bir xil joylari turli, rassom shunga o'rganadi va kerakli bo'yoqni darrov

topib ishlatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Monbo'yoqda tasvirlar gpilashnmng juda ko'p urganilishp kerak bo'lgan tomonlari bor. Ularnmng barchasi ko'n mashk, qilish orqali o'rganib olish imkonipi beradi. Tajrnb.1 nazariy va amaliy tomondan muntazam mashq qilish natijasida oshadi. Bunda maxsus adabnyoglarni mutolaa qilish ham yaxshi yordam beruvchi vositalir.

Savollar:

- 1.Moybo'yoq boshqa bo'yoq turlaridan nimasi bilan farq qiladih
- 2.Moybo'yoq-tasvir texnologiyasi to'g'risida nimalarni bilasyzh
- 3.«Lessirovka» texiikasi nima, u qanday qo'llanadih

Tayanch tushunchalar.

Lessirovka ranpasvir ishlashning texnik usullarplan biri, quyuq qilib berilgan qatlam ustidan sutoq, tiniq va yarimtinnq bo'yoq qatlamini surib bajariladn.

Palitra — to'g'ri to'rtburchak yoki oval ko'rinishilagi yupqa taxta, rassom unla bo'yoqlarni ishlashga tayyorlab aralpshtiradi.

Qoplama — bo'yoqda rasm ishlash maqsadida romga torgalغان bo'z yoki kartonga surtiladigan elimli (murakkab) qorishma.

7-MA'RUZA. 2 SOAT.

MAVZU: Odam boshining rangtasvirini ishlashda hal ^tiladigap o'quv vazpfalari. Shaxsii o'xshatib aks etttsrish haqpda. hajmdor shaklni qurish-tasvirlashnpng o'ziga xosliklard. Rangtasvprnp har tomonlama ishlab chpqshda «katta shakl» tushupchasp, unsurlarning ahamiyati

REJA:

- 1.Portret ishlashning dastlabki saboqlari. Uni amalga oshiri1i omillari.
- 2.O'ziga xosliklarini batas|,sil bayon etish orqali portret yaratishping nazariy asoslarpnn berish
- 3.Yaxlitlik masalasini hal etish yo'llari xususida.

Adabiyotlar:

1. G.V.Beda. Jivopis. Moskva. "Prosveadenie". 1986. (119-131 betlar)
- 2.Risunok. Jivopis. Kompozitsiya. (Xrestomatiya) Moskva. "Prosveshenie". 1989. (110-115 betlar)
- 3.Izobrazitelnoe iskusstvo. (Pod redaktsiey A.A-Unkovskogo) Moskva. "Prosvettsenie". 1987. (42-51 betlar)

MAVZUNING MATNM:

Odam tasvirini ishlash rassomdan ko'pdan-ko'p bilim talab qiladi. Bunday talablar o'qish o'rganish ham nazariy, ham amaliy tajribalar to'plashni, ularni ishda qo'llay bilishni taqozo ztadi. Odam boshi va taiasini rangtasvirini ishlashdan avval natyurmortlarni puxta ishlashpi o'rganib olingan bo'lish kerak. Aks holda yaxshi natijalarga erishish mushkul bo'ladi. Odam boshi tasvirini ishlashni bir-biri bilan uzviy bogliq holdagi bir nechta bosqichlarga bo'lish mumkin. Ular quyidagilardir:

- 1.Bosh tasvirini «grizayl» texnikasida bajarish.
- 2.Bosh tasvirini kunduzgi yorug'lik sharoiti muhitida tasvirlash.
- 3.Bosh tasvirini sun'iy yoritilgai holatini aks ettirish.
- 4.Bosh rangtasvirini ochiq havoda «plener»da tasvirlash. Ma'lumki ilgariigi ma'ruzalarda aytib o'tilganidek tasvir ishlashda chizilayotgan narsaning tusi (ton)ni to'g'ri aks ettirish, shunga muvofiq rangini berish muhim ahamiyatga ega. Bosh tasvirini ishlash mashqlarida ham bu asosiy narsadir.- Buning uchun avval tasvirni to'q-ochligini, shakl xususiyatlarini topib tasvirlashni o'rganib olish kerak. Bunda grizayl texnikasida mashq-ishni bajarishga to'g'ri keladi. Chunki shunday qilinganda boshni hajmdorligi, shaklini yuzaga

chiqarishni o'rganish qulaydir. Undan tashqari bitta rang tusi bilan tasvir ishlanganda ko'proq buyumning (natyurmortda), boshning (portretda) shakliga va hajmini ko'rsatishga ko'proq e'tibor berish mumkin bo'ladi. Chunki rang tovlanishlari, jilvadorligi bunda ikkinchi darajali hisoblanib turadi. Bunday holda mo'iqalam ishlatish texnikasi, usullarini ham ma'lum darajada takomillashtirib olish imkoni tug'iladi.

Bosh tasvirini o'rganish odatdagidek chizilayotgan shaxsning o'ziga xos tomonlarini «tadqiq etish»dan boshlanadi. Buning uchun avval qalamchizmalar, bir nechta kiska-kiska muddatli ranglavhalar bojariladi. Bista rangda, ko'pincha jigarrang «mars»ni yoki qora rangni oq bilan qo'shib ishlanadigan tasvirda odam boshining shakl, to'q-ochlik munosabatlari, fonga nisbatan qanday yaxlitlikda ko'rinishi, undagi asosiy qismlarning tarxi belgilab olinadi. Ana shunday yordamchi ish bajarilgach asosiy vazifani boshlab, batafsil tasvirni ishlashga o'tish maqsadga muvofiqdir. Uzoq muddatli tasvirda esa har bir mayda unsur ham e'tiborga olinib aniq ishlanadi.

Tasvirni bajarganda mo'yqalamning yapalog'idan foydalanilishi har bir sathni bo'lib-bo'lib, shakliga mos ravishda bo'rtirib aks ettirish imkonini beradi. Chunki mo'yqalam shakl yo'nalishi bo'yicha ishlatiladi. Surtmalar har bir bo'lakni ifodalaydi. Bosh tasvirini ishlashda uning atrof muhitdagi holatiga ham jiddiy e'tibor berish kerak. Chunki uning ko'rinishiga atrofda barcha narsalar ma'lum darajada o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tasvirni yuzaga chiqarishda ayniqsa orqa tomon (fon)ning o'rni kattadir. Chunki chizilayotgan bosh unga pisbatap to'q yoki och bo'lib «siluet»da kurinadi. Shu sababli qo'yyilmani ikki xil holatda, ya'ni ochiq va to'q tusli ortlik (fon) bilan ishlab mashq qilish yaxshi samara beradi.

Tasvirlanayotgan bosh to'rridan yoki yon tomondan «ritilsa undagi har bir bo'lak (detal). bo'rtib ko'rinadi va shunda uni yaxlit tasvirini ishlan! qulay bo'ladi. Avval katsh sakl tus (ton) munosabatlari yaxlit qilib olingach maydts Zo'laklar ham batafsil ishlanadi. Bunda albatta soya-yorug', aks shu'la (refleks)larga e'tibor berilishi, o'xshatib o'z o'rnida gasvirlanishi zarur. «Grizayl» vazifani bajargaeda boshni sun'iy yorug'lik manba'i bilan eritish yaxshi samara beradi. Shunday qilinganda chizilayotgan ob'ekt aniq, tiniq ko'rinish turadi. Xajmi yaxshi anglashiladi. Boshning shaklini ko'rsatishni uning soya joyidan boshlangani ma'qul, shunda tasvirni yaxlit ishlash imkoniyati paydo bo'ladi. So'ag yarimsoya refle-kslarga o'tish mumkip. Avval fonni to'liq ishlab olgach, keyin boshni tasvirlash yaramaydi. Ikkalasinp birvarakay teng qilib olib borgak yaxshi. Shunda tasvirni yaxlit qilib ko'rsatish oson bo'ladi. Boshni asosiy «siluet»ini topib soya-yorug'ini lo'nda qilib olingach mayda unsurlarga ham o'tish, ularni ma'lum darajada batafsil ishlash mumkin.

«Grizayl» vazifani ishlab tajriba orttirilgach rangda ham mashqlar bajarish mumkin. Bu holatda barcha rang tuslaridan unumli foydalaniladi. Rang jilvalarini mukammal o'rgaiish ishida mashq-vazifani tashqarida, ochiq qavoda, ya'ni «pleier» sharoityda bajarish yaxshi natija beradi. Bunday ishni talaba uy ishi sifatida doimo ado etib turishi uning tajribasi ortishiga omil bo'ladi.

Savollar:

- 1.Odam boshini tasvirlashda asosan qanday qonun-qoidalarga amal qilinadih
- 2.Odam boshini tasvirlashda «grizayl» texnikasini qo'llashning afzalligi nimalarda namoyon bo'ladih
- 3.Odam tasvirini ranglar bilan ishlash texnologiyasi qaqida nimalarni bilasizh

Tayanch tushunchasi.

Portret — Odamni aks ettiruvchi, turli san'at turlarida yaratilgan asar, sur'at.

fon— Chizilayotgan, tasvirlanayotgan o'quv mashq ishi uchun qo'yilgan natyurmort yoki qiyofachiniig orqa tarafi (sathi).

Siluet — oq fondagi bir xil rangda bajarilgan, yassi qilib tasvirlangan, hajmsiz tasvir,sur'at (odam yoki buyumlar tasvir-rasmi).

Plener— ochiq havo sharoitida ishlangan rangtasviri rashtasvir.

8-MA'RUZA 2 SOAT.

MAVZU: Odam boshini rangtasviri ustida ish olib borish bosqichlari. Ishni namunali bajarishda

akademik ketma-ketlikning, tasviriy metodik tarzda bosqichlarga bo'lib olib borishning yo'llari, qondalari va uning ahamiyatli tomonlari.

REJA:

1. Bosh tasviriy ishlashni akademik yo'llari bilan nazariy jihatdan tanishtirish.
2. Tasviriy bosqichlarga bo'lib ishlashni o'ziga xos tomonlarini o'rgatish va shunga amal qilishga tayyorlash.
3. Nazariy bilimlari amaliyotga qo'shib olib borishga chog'lash.

Adabiyotlar:

1. G.V. Beda. Jivovis. Morskva. "Prosvetshenie". 1986. (136-142 betlar)
2. Risunok. Jivovis. Kompozitsiya. (Xrestomatiya) Moskva. "Prosvetshenie". 1989. (Ts5-117 betlar)
3. Izobrazitelnoe iskusstvo. (Pod redaktsiei prof. A.A. Uikovskogo) Moskv.!. "Prosvetshenie". 1987. (45-55 betlar)

MAVZUNING MATNI:

Odam. boshi rashtasviriy ishlash «grizayl» texnikasini o'zlashtirib olingandan keyingi muhim qismlardir. Ma'lumki tasvir ishlash xoh u qalamtasvir bo'lsin, xoh rangtasvir bo'lsin, akademik usulda shartli bosqichlarga bo'lib olib boriladi. Bunday bir-biri bilan; uzviy bog'liq holda, metodik ketma-ketlikda faoliyat yuritish o'quv-mashq vazifani muvaffaqiyatli bajarishning omili bo'lib xizmat qiladi.

Bosh rangtasvirini ishlash albatta bir nechta yordamchi qalamlavhalar ishlab ko'rish, joy tanlash, qiyofachi boshini; o'ziga xos shakliy xususiyatlarini o'rganishdan boshlanadi Ulardan unumli foydalangan holda matoga boshni! qalamtasviri chiziladi. Qo'yilmaning rangdagi ko'rinishi qanday ekanligini ham bir-nechta kichik ranglavhalar ishlab ko'rish orqali tushuniladi. Bunda uning soya-yorug'lik munosabatlari, rang xususiyatlari, yaxlitligi, katta shaklni belgilab tusini ortiq(fon)ga nisbati qandayligi aniqlab olinadi. Ana shu tayyorlab, sinchkovlik bilan mashq qilib ko'rilgan qalam va rangli lavhalar yordamida asosiy vazifo-akademik ish mufassal bajarilishiga ershiladi.

O'quv-mashq vazifa quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Bosh va kiyim qismlarining yoruklik va soyasining fonga nisbatan yaxlitligish katga shaklini topish.
2. Shaklni qismma-qism barcha bo'laklarini o'rganib, batafsil aks ettirib chiqish.
3. Umumlashtirish va tasvirlash gus-rang hamda tuzilish «konstruktiv» jihatlarini yaxlit ko'rinish holatiga olib kelish.

Yuqorida keltirib o'tganimiz uch bosqichdan birinchisi avvalgi amaliy vazifalarni bajarish paytida ancha-muncha o'zlashtirib olingan bo'lganligi sababli oson bajariladi. Keyingi ikki bosqich esa endigi bo'ladigan mashg'ulotlar natijasida o'rganilishi ko'zda tutilgan. Ikkinchi bosqichla asosan boshning barcha muhim hisoblanuvchi qismlari alohida-alohida sinchiklab, hajmi va shaklini chuqur tahlil qilgan holda iloji boricha batafsil ishlab chiqiladi.

Ammo batafsillik umumiy katta shaklga va katta rang umumlashmalariga putur etkazmasligi kerak. Xar bir kichik uisur rangi hamda shakli ishlanar ekan uning katta hajmga va umumiy rang gammasiga nisbati e'tiborda ushlab tutilishi zarur shartlardan biridir.

Bosh tasviri mayda qismlarini, ayiiqsa ko'z, qosh, burun, og'iz, quloq kabilarni aks ettirish jarayoni juda nozik va ko'p mehnat talab etadigan ishdir. Ularni tasvirlaganda ko'p narsolarni aql va tajriba bilan hal qilish kerak. Masalan, ba'zi uquvi kam talabalar ko'z, qosh, burun, ogizni chiziqlar bilan ifodalab qo'ya qoladilar, ularning o'z shakli, hajmi mavjud ekanligiga chuqur e'tibor bermaydilar. Vaholanki, har bir shaklning bo'rtib soya-yorug'ga ega bo'lib, hajmi rangi o'zgacha ekanligini sezib olga qiyin emas. Buning uchun ularni o'zaro farqlarini solishtirib aniqlash va o'xshatib aks ettirish mumkin. Bunda ularning rangidagi farqlarni ham mustasno qilish kerak emas.

Boshning ortlikka nisbati uning rangi, to'q yoki ochroq tusga ega ekanligini to'g'ri, aniq topib tasvirlash ishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Upda boshning har bir qismi batafsil

ishlanishiga qaramay umumiy ko'rinishi yaxlit Qabul qilinishiga erishish taqozo etiladi. Shunday hollar ham uchraydiki, unda talaba tasvir etilayotgan bosh tasviridagi soya-yorug'liklarni to'g'ri ishlamay juda to'q yoki och qilib qo'yadi. Shu'lolarni ham ortiqcha bo'rttirib, erkinlashtirib yuborib umumiy rang-gus yaxlitligiga ixtiragan bo'lgazadi. Vaholanki aks shu'lalar (reflekslar) sonning ichida, uning tarkibida bo'lishi kerak. Ularni o'ta bo'rttirib yuborish soya qismining maydalashib ketishiga sabab bo'ladi.

Ishni umumlashtirish bosqichida barcha maydalab, batafsil tasoir etilgan qismlar «katta shakl»ga bo'yushtirilishiga alohida urku berilishi talab qilinadi. Umumlashtirilganda taniqli pedagog-rassom P.Chistyakov ta'biri bilan aytganda «...ko'zni bor aniqligi bilan ongli qilib tasvirlash kerak, burun va ashshsh bemalolroq ishlash lozim, boshqolari esa umumlashib ko'rinma ham bo'ladi».

Bosh tasvirini ishlaganda uning qanday ko'rinishiga ta'sir etuvchi kompozitsiya markaziga ham ko'i narsa bog'liq. Kompozitsiya yaxshi topilgan va u tus, rang, to'q-erug' munoozbatlari bilan yuzaga chiqarilgan bo'lsa, mashq-vazifa ijobiy natija berishi aniq. Shuni ham ta'kidlash kerakki, mashqlar faqat auditoriyadagi ishlar bilan cheklanmasligi kerak. Uy ishlarini tez-tez va qunt bilan ado etish talaba bilimi va tajribasini oshirishning muhim omilidir.

Savollar:

- 1.Odam boshini ishlash yo'llari, tasvirlashning bosqichlarida nimalarga amal qilish kerak
- 2.Akademik tasvir-mashq va ijodiy ishning qanday farqlari bor
- 3.O'quv-mashq vazifa qanday tartibda olib boriladi
- 4.Bosh tasvirini ishlashda uning kompozitsiyasi qanday o'rin tug'adi

Tayanch tushunchalar.

Akademik— o'quv-mashq tasvirlarni ishlashda ketma-ketlik qo'llaydigan ish tartibi (bosqichlar).

Konstruktiv— narsa tasvirni ichki tuzilishi (sinchini) hisobga olingan holda ishlash (asosli tarzlar).

Katga shakl — tasvir ishlanganda narsaning barcha mayda- chuydalariga e'tibor bermasdan yaxlit qilib aks ettirilgan rasmi.

P.Chistyakov - XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rus Badiiy akademiyasida pedagoglik qilgan rassom-ustoz.

9-MA'RUZA. 2SOAT.

MAVZU: Portret rangtasviri va kompozitsiya masalalari.

Portretni mazmunli voqeband holatlar baxsh etib ishlash yo'llari haqida va «plener»da portret ishlash masalalar, o'quv vazifasi sifatida bajariladigan portret ishlar va ijodiy portret o'rtasidagi farqlar. Akademik portret talablari.

REJA:

- 1.Tasviriy san'atni o'rganishning muhim qismi bo'lgan portret ishlash yo'llarini puxta tahlil etish orqali undagi muhim jihatlarni o'zlashtirish.
2. Nazariy va qisman amaliy ish yo'sinlarini tushintirish.
- 3.Portretni turli yorug'lik manba'i va obi-havo sharoitida (plensrd) ishlash yo'llari, maqsad, vazifalari to'g'risida ma'lumotlar berish.

Adabiyotlar:

1. G.V.Beda. Jivopis. Moskva. "Prosveshchenie". 1986. (108-110, 136-142 betlar)
- 2.Risunok. Jivopis. Kompozitsiya. (Xrestomatiya) Moskva. "Prosveshchenie". 1989. (117-124 betlar)
- 3.Izobrazitelnoye iskusstvo. (Pod redaktsiey Professora A.A.Unkovskogo) Moskva. "Prosveshchenie". 1987. (51-54 betlar)

MAVZUNING MATNI:

Ma'lumki odam qiyofasini ishlash tasviriy san'at-sohasining eng murakkab qismidir. Bu

vazifani uddalash juda ko'p nazariy va amaliy ishlarni jo'yali, qonun-qoidali qilib ado etishni talab etadi. Portretga, ayniqsa ijodiy portretga odam boshini yaxshi tasvirlashni o'rganib olingach, kirishiladi. Chunki portretga odamning nafaqat boshi, yuch qismi, balki uning bo'yni. gapdasi, ba'zida esa butui gavadasts aks ettiriladi. Portret ishlashda kompozitsiya yaratishning barcha muhim qonun-qoidalarini ham mukammal, atroflicha bilish talab etiladi.

Portret oddiy, murakkab keig ma'no tashuvchi, voqeani aks ettiruvchi bo'lishi bilan bir-biridan ajralib turadi Respublikamizda ijod qilayotgan ko'plab raesomlar orasid.1 portret ustalari ham bor. Ular qatorida L.Lbdullaets, R.Ahmedov, N.Qo'ziboev. V.Burmakin, B.Boboev, R.Chorien, L.Ikromjonov, M.Nuriddinov, S.Rahmetov va boshqko'plarni sanab o'tishimiz mumkin. Mamlakatimizning edts taniqli, mahoratli portretchi rassomi esa. albatga Abdulhak, Lbdullaov deb e'tirof etsak o'rinli bo'ladi. Chunki bu musavvir o'zbek iortretchiligi san'atiga ulkan muvaffaqiyatlar keltirgan ipsondir. Ma'lumki M.Nabieg. ham portret san'ati namunalarini juda ko'pini yaratgap rassomdir. Musavvirniig «Amir Tomur» iortret asari vp «Bobur portreti», «Abu Rayhon Beruniy portretl" ko'pchilikka ma'lum ajoyib asarlardir desak yanglishmaymiz. Akademik yo'nalishdagi portretni ishlashning o'z qonun qoidalari bor. Ular o'quv-mashq ishi ekanligi, qatii me'zonlar doirasida, metodik izchillik asosil'1 bajarilishini bilamiz. Lmmo uning barcha talablariga muvofiq ish olib borish apcha murakkabdir. Buning uchun talaba ko'p mashq qilishi hamda nazariy bilimlar bilap qurollanishi kerak.

Portret mashq vazifa sifatida ishlanayotgan bo'lsada, «yaga alohida talabchanlik bilan yondoshish zarur. Chizilayotgan dppiniyag qiyofasini o'xshatish eng muhim ishdir. Bu masalani ijobiy hal etish kompozitsiya, tasvir rang xususiyatlari, o'ziga xos xususiyatli shaxsga aloqador belgilarni topa va aks ettira bilish bilan bog'liqdir. Uquv-mavtq uchun ko'rinishi qiziqarli, yuz tuzilishlari ifodali, paigi ham chiroyli ko'rinishga ega bo'lgan kishi tanlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Odatda portretning qo'l tasviri bilan birga ishlanadigan xili (tors), butun gavda to'liq aks ettiriladigan, hamda xonadagi boshqa uy jihozlari bilan bog'liq holda voqeabandlik kasb etuvchi kompozitsiyaviy turlari mavjud. Ular qanday sharoitda, qanday atrof-muhitda ishlanishi taspir ma'no-mohiyatini belgilaydi. Akademik portret albatga bosqichma-bosqich, barcha qo'yilgan talablarga amal qilingan tarzda bajariladi. Uni ishlashdan avval qo'yilma yaxshilab tahlil qilindi. Ranglavha, kichik qalamchizgilar qilinadi. Ular yordamida bo'lajak asosiy portret rangtasvirining tarxlari kompozitsiya qonun-qoidalariga muvofiq topiladi. Bosqichma-bosqich ishlash esa, umumiydan xususiyga, so'ng esa yana umumlashtirishga asoslangan holda tartibli qilib olib boriladi.

Ishni sifatli olib borishda rangtasvir texnologiyasiga to'liq amal qidinsa tasvir mazmundorligiga erishish engil kechadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, portretga qo'yiladigan eng asoeiy talablardan biri uning tasvir etilayotgan shaxsga o'xshashi kerakligi masalasidir. Bu jihatni amalga oshirishda aks ettirilayotgai kishi-qiefachining o'ziga xos fe'l-atvorini sezib uni ifoda etish mUhimdir. Qiyofachining shu sifatleri uning bosh shakl guzilishida, ko'z, qosh, burun, og'iz, yonoq, iyak, peshona, TMchlaridan sezilib turishi ma'lum. Ularni shakllari, glarini tabiiy ko'rinishiga yaqin qilib olish ancha '-inchkovlikni talab etadi. Portretga chizilayotgan kishi kayfiyati, ruhiy holatiga alohida ahamiyat berilishi kerak. Chunki portretga bu juda katta rol o'ynaydi. Kompozitsiya mazmunining nechog'li echim topishi shunga bog'liq.

Ma'lumki qiyofachi qanday holatda (o'tirgan yoki tik), qanday muhitda (xona ichida yoki tashqarida) tasvir etilayotganiga alohida e'tiborni qaratish lozyam. Chunki shunga muvofiq uning rang echimi hal etiladi. Ta'sirchanlign, ko'rimgiligi shunga yarasha aks etadi. Portret ishlashni o'rgaiishning eng zarur sharti talabalarning uy vazifasi sifatida ko'proq mashqlar bajarishi bilan belgilanadi. Iloji boricha qiyofachilariing yoshlari, ko'rinishlari, jinslari turlicha bo'lishi, ular xona ichida, tashqarida ochiq havo sharoigida turli tuman fonlar bilan ishlanishi zarur. Portretga chizilayotgan odamlarning kiyim-kechaklari, bosh kiyimlari, qo'lidagi yoki yonidagi buyumlar ham ma'lum darajada ahamiyatlidir. Ular komiozntsiyaii boyitib, ish mazmuniga mazmun,

voqeabandlik bag'ishlaShI mumkin.

Savollar:

1. Ijodiy portret yaratish jarayoni to'g'risida iimalarni bilasizh
2. O'zbek portreti san'ati ustalaridan kimlarni bilasizh
3. Portretning qanday turlari bor, ularga misollar keltira olasizmi

Tayanch tushunchalar.

Kompozitsiya — asar yoki tasviriy ishning tuzilishi, tarx, raigechimn. Chizilayotgan narsalarni satxda chiroyli, ma'ioli qilib joylashtirish, aks ettirish.

Akademik — Mashq qilish niyatida, maxsus qonun-portret qoidalarga amal qilib bajarilgan odam tasviri.

Ijodiy — ma'lum g'oya va mavzuga, ijodiy uslubga portret bo'ysunuvchi, muallif xoxishi-irodasini o'zida mujassam etuvchi tasviriy asar.

Tors — chizilayotgan. tasvirlanayotgan kishi, qiyofachining yarimgavda qismi (gavdaning yuqorisi, tizzagacha qismi).

Voqeaband — biror hayotiy voqea-hodisani aks ettiruvchi, mavzuga asoslangan asar-kompozitsiya.

10-MA'RUZA. 3 SOAT.

MAVZU: Odam gavdasivi rangtasvirda ishlash yo'llari. Odam yuzi, qo'li, kiyimini nfoda etish. Rangtasvir ifodasida yaxlitlik.

REJA:

1. Odam gavdasini chizish va rashtasvirini ifodalashda qo'llanadigan tasviriy vosigalar, mahoratga erishish yo'llarini o'rgatish.

2. Kiyimli odam qiyofasini, yalang'och badapni tasvirlashdagi murakkabliklar va o'ziga xos tomonlarni tushuntirish.

Adabietlar:

1. G.V. Beda. Jivopis. Moskva. "Prosveshenie". 1986. (142-146 betlar)

2. Risunok. Jivoiis. Kompozitsiya. (Xrestomatiya) Moskva. "Prosveshenie". 1989. (124-125 betlar)

3. Izobrazitelnoe iskusstvo. (Pod redaktsiey N.S. Bogolyubova) Moskva. "Prosvesh,enie". 1980. (38-47 betlar)

MAVZUNING MATNI:

Odam gavdasi, badanini rangtasvirini ishlash eng murakkab vazifalardan hisoblanadi. Chunki kiyim ichida turadigan quyoshda qorayib rang olmagan odam terisi juda nozik rang tuslarida bo'ladi. Uni tasvirlash, rang-tusini o'xshatib ifodalash ancha qiyindir. Odam gavdasini har xil ko'rinishlarini turli vaziyatlarda aks etshirish inson tanasi tuzilishi, anatomiyasi, o'ziga xos itkl-shamoyilini o'rganishni, plastik echimini topishni taqozo etadi. Shuning uchun chizilayotgan odam keksami, yoshmi gavdasining konstruktiv tuzilishini avvalo qalamsuratini chizib o'rganilishi kerak. Buning uchun mayda qalam chizmalar, ranglavhalar bajarish, shakl va rang-tus munosabatlarini tahlil qilib o'rganish lozim. Shundan so'ng' eng maqbul, chiroyli, ko'zga yaxshi tashlanadigan joydan turib tasvirni matoga tushirish boshlanadi. Unda gavdaning sathda joylashishi kompozitsiya tomonlari puxta o'ylab chiziladi. Rangda ishlaganda katta shakl, rang uyg'unligiga ham alohida z'tibor bilan qaralishi, mutanosiblik barcha narsada o'z aksini topishi" kerak. Ular esyo gavdanipg har bir bo'lagi rangn, soya yorug'ligida namoyon etiladi.

Odam gavdasi uning soya va yorug joylarini yaxlit qilib ham tus, ham rang jihatidan ishlab chiqishdan boshlanib, hajmni ko'rsatishga yordam beruvchi unsurlar-yarimsoya va aks shu'lalarni belgilash bilan davom ettiriladi, bunda rang koloriti ham muvofiq tarzda ko'rsatiladi. Ayniqsa gavdaning qorin va bel qismlari rang jihatidan juda murakkab, nozik tovlanishli tuslarga egaligi bilan ajralib turadi. Ularni «nyuans»lar yordamida ishlash mumkin. Bunda ham tus, ham ^rang o'zgarishlarining salgina farqi ham hisobga olinadi. Odam tanasi agar kiyim bilan tasvirlanayotgan bo'lsa, kiyim gapa qismlari shakliga monand burmalar hosil qilib turishi hisobga olib ishlanadi. Aks holda uni yg tagidagi badan sezilmaydi va tana plastikasi

Buzulib ko'rinadi. Buning uchun avvaldan matolarning qanday burmalanib turishi, natyurmortlar ishlash jarayonlarida ham yaxshi o'zlashtirib olingani qo'l keladi. Ilgarigi ma'ruzalarda biz odam boshi va yuzini qanday ishlash kerakligi ustida to'xtalgan edik. Gavda tasvirini bajarganda odamning bosh va yuz qismlari bo'yin va boshqa a'zolar bilan birgalikda, uzviylikda tasvirlanadi. Shu tomoniga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ularni plastik va qurilish jihatidan bog'lab ifoda etish ancha murakkab bo'lib, sa'y-harakatlar talab qiladigan mashg'ulotdir.

Inson gavdasini rangtasvirini qay yo'sinda, qanday ko'rinishda ishlamang unda albatta qo'l tasvirining o'rni kattadir. Chunki qo'l harakatlari, turish holati orqali gavda, inson tanasi vaziyatlari, harakatli holatlari yaqqol bo'rtib ko'rinadi. Qo'l yaxshi aks ettirilsa tasvir e'tiborli va to'kis ko'rinish kasb etadi.

Kiyimli portretida qo'l tasviri hatto insonning «ikkinchi yuzi» deb ham atalishi bejiz emas. U orqali inson kayfiyati, uning ichki ruhiy kechinmalari ham bo'rttirib ko'rsatilishi mumkin. Shuning uchun qo'lga ikkinchi portret sifatida qarab, xuddi inson yuzini qanday e'tibor bilan ishlansa uni ham shunday diqqat bilan tasvirlamoq kerak.

Savollar:

1.Odam qiyofasini to'liq tasvirini ishlashda qanday murakkabliklar uchraydih

2.Kiyimli odam va yalang'och odam tasvirini bojarishda qanday o'ziga xos farqlar mavjudh

3.Portretida qo'l tasviri qanaqa o'rinni egallaydih

Tayanch tushunchalar.

Yaxlitlik — tasvirlanayotgan ob'ektni barcha batafsilliklari bilan aks ettirgan holda,suratning umumlashib, katta shaklga bo'ysungan holda ko'rinishini ta'minlash.

Anatomiya — odam tanasidagi barcha a'zolar tuzulishi, funksiyalari, joylashishini (mushaklar tizimi) o'rganadigan fan. Qalamchizma— tezlik bilan, dastlabki taassurotlarga asoslanib ishlanadigan rasm.

Ranglavhalar — tezlik bilan, dastlabki taassurotlarga asoslanib bajariladigan bo'yoq bilan ishlapadigan tasvirlar. Plastika — tana a'zolarining o'zaro mutanosib go'zal tarzda bog'lanishi, uning tasvirlarda aks etishi (shakllar, chiziklarning egiluvchanligi, ta'sirchan ifodasi)

11.MA'RUZA 3 SOAT.

MAVZU: Rangtasvirda turli sirtlarpi ifodalai bilish.

REJA:

1. Mahoratga tegishli nazariy tushunchalarni berish.
2. Buyum,, narsalariing va. inson tanasi sirtlarinit tasvirini ishlashdagi farqlarini tushuntirish va ularni ifodalashga o'rgatish

Adabiyotlar:

1.G.V.Beda. Jivopis. Moskva. "Prosveshenie". 1986. (26-34 betlar)

2.Risunok, Jivopis, Komnozitsiya (Xrestomatin) Moskva. "Prosveshenie". 1989. (125-128 betlar)

3.IzobrazitelNoe iskusstvo. (Pod redaktsiey N.S.Bogolyubova) Moskva. "Prosveshenie". 1980. (51-55 betlar)

MAVZUNING MATNI:

Rangtasvir ishlashning nozik tomonlari ko'p. Ulardan biri turli sirtlarni ifodali tasvirlash masalasidir. Chunki natyurmortda ham, odam tasvirini bajarganda ham chizilayotgan narsalarning moddiy ekanligini ko'rsatish muhim hisoblanadi. Buyumlarning tasvirdagi moddiyligi, qanday ashyodan yasalgani yoki tarkib topgani avvalambor uning soya-yorukligini

aks ettirish vositasida ko'rsatiladi. Turli materiallardan yasalgan buyumlar sirtining o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-birlaridan farkanib turadilar. Masalan, silindrik shakldagi buyum o'zining soya-yorug' hamda yarimsoya va aks shu'lalarining bir-biriga silliq ko'rinishda o'tishi sababli ajralib turishi bilan xususiyatlidir. Xuddi shunday shakl-shamoyilga ega bo'lgan shisha idishda esa soya bilap yorug' qismi, yarimsoyalar chegarasi yaxshi sezilmaydi. Uning shaklini faqat yiltirab turgan shu'la (blik) va aks shu'la (refleks)lar bo'rttirib ko'rsatishi mumkin. Metallardan yasalgan buyumlarda ham shunday holatni ko'rishimiz mumkin, Agar narsalarning xuddi ana shu xususiyatlarini qalamtasvir yoki rangtasvir yordamida o'xshatib tasvirlasak ularning qanday ashyodan ekanligi (materiali) seziladi. Masalan, metaldan, shishadan, yoochdan, gipsdan va hokazo narsalardan tayyorlanganligi tasvirdan bilinib turadi. Narsaning qanday ashyodan ekanligi tasvirning tarxi, rapgi, tusining to'q eki ochligi bilan ham ajralib turadi. Ular naturaga, asliga har tomonlama o'xshatib, mutanosib qilib olingaya bo'lsa shunday sifatga ega bo'ladi.

Inson tanasi, boshi, qo'l, oeg'i va boshqa a'zolarini gasvirlash paytida ayniqsa kiyim-kechagi, bosh kiyimi va boshqalarning sirti ko'rinishi aslidagidek o'xshab chiqish uchun ular ham rang, tusi xususiyatlari bilan to'liq aks ettirilishi kerak. Inson tanasi tasvirlash uchun juda murakkab ob'ektdir. Shu sababli u boshqa narsalarga qaraganda alohida mas'uliyat bilan, har-xil texnik imkoniyatlarni qo'llab ishlanadi. Masalan, yuzdagi va badanning boshqa joylari sirtida ko'p farqlar bor. Yuz dag'alroq bo'lsa bo'yin va bel qismlari nozik rang tuslarida ko'rinadi, shunga yarasha tasvirlanadi.

Savollar:

1. Portret mahorat, ko'nikma va malaka, tajribaning o'rni nimalarda namoyon bo'ladi
2. «Materiallilik» — narsa sirti xususiyatlarini ifoda qilish qanday omillar bilan yuzaga chiqariladi
3. Odamning yalangoch tanasini tasvirlash nima uchun kiyimdagisini aks ettirishdan qiyinroq, bo'ladi. Uning sabablari nimadur

Tayanch tushunchalar.

Sirtlar — narsaning nimadan, qanday ashyolan (tosh, shisha, yog'och, sopol, temir va boshqalar) yasalganlik xususiyati, narsaning ust qismi, tekisligi.

Gips — ganch, oq yoki sarg'ich rangli metall, qurilish materiali, haykaltaroshlik, o'ymakorlik va bo'yoq tayyorlashda foydalapiladi.

Tarx — chizilgan narsa tasviridagi uni atrof-muhitdan ajratib turuvchi chekka chiziq (u rasmni yaxlit ko'rinishiga xizmat qiladi).

Texnik — tajriba, mahorat darajasiga qarab imkoniyat orttirilgan malaka, usul, tasvirlash yo'li.

12. MA'RUZA. 3 SOAT.

MAVZU: Yalang'och gavadan ranglavha nashlashda qo'yiladigan talablar. Rangtasvirda shakl talqini, rang uyg'unligi va tasvir yaxlitligi.

REJA:

1. Odam gavasini ishlashning tayyorgarlik bosqichi.
2. Ranglavhalar ishlashda qo'yiladigan talablar.
3. Rangtasvirda shakl va rang talqini masalalari.

Adabiyotlar:

1. G.V. Beda. Jivonis. Moskva. "Prosvepdenie". 1986. (136-147 betlar)
2. Risunok. Jivoniis. Kompozitsiya. (Xrestomatiya) Moskva. "Prosveidenie". 1989. (78-89 betlar)
3. Izobrazitelnoe iskusstvo. (Pod redaktsiey N.S. Bogolyubova) Moskva. "Prosveshenie". 1980. (48-50 betlar)

MAVZUNING MATNI:

Odamning kiyimsiz, yalang'och gavasini rashtasvirda aks ettirish ancha qiyin

ish. Bu o'quv - akademik vazifani bajarish tasvir ishlashning deyarli barcha yordamchi bosqichlarini o'tilgach amalga oshiriladi. Yalang'och tanani tasvirlashda uning tayyorgarlik bosqichi, ranglavhalar chizish katga ahamiyatga ega. Chunki unda talabaning quyilmadan olgan ilk tasavvuri, taassurotlari mujassam bo'lishi ma'lum. Ranglavhalar ham o'z navbatida qalamtasvir, tezkor chizgilar amalga oshirilgach ishlanadi. Ular ko'pincha kartonlarga ishlanishi mumkin. Bunday mashqlar paytida tasvir etilayotgani odam qiyofasidagi umumiy plastik va rangga oid jihatlar, shu bilan birga yaxlitlik masalalari tezkorlikda hal etilib bajariladi. Ma'lumki ranglavha uncha ko'p muddatda bajarilmaydi, eng ko'pida bir, ba'zan esa ikki seans ishlanishi mumkin. Ana shunda odam qiyofasining asosiy rang-tusi, shakl xususiyatlari ishlab olinib ifodali. Ma'lumki, odam xona ichida, inter'erda bo'lganda u va undan har xil masofada joylashgan narsalar yoki boshqa odamlarning qiyofasi muhit holatiga muvofiq o'zgarib ko'rinadi. Bunda tasvirni tasvir ob'ekti uzoq yoki yaqin masofada joylashganligiga qarab planlarga ajratib aks ettirish yo'li qulaydir. Bunday ish o'quv quyilmasida ikki kishidan iborat kompozitsiyaviy vazifani ishlash talab qilinganda amalga oshiriladi.

Murakkab kompozitsiyali, mavzuli voqeaband quyilmalarni tasvirlaganda xona ichidagi yorug'lik qanday holatda ekanligi muhim rol o'ynaydi. Chunki chizilayotgan paytda tasvir ob'ektlarning asosiy qismlari bo'rttirib ko'rsatilishi, asosiy narsalar yuzaga chiqarilishi, zarur emaslari esa xiraroq aks ettirilib uzoqlashtirilishi talab qilinadi. Shunday muhit holatlarini ko'rsatish albatta rang-tuslarni ustalik bilan ishlatishni, tajribani taqozo etadi. Ranglar majmuining o'zaro uyg'unlikda tiniq-yorqin yoki xira, tuslari so'nik qilib tasvirlash orqali ham mavzu mohiyatini, mazmunini ochib ko'rsatish mumkin. Bu holda raqslar gammasiga, uning ma'nodorligiga alohida e'tibor qaratiladi va uning «kaliti» topib qo'llanadi.

Ma'lumki, inter'erda tashkil qilingan quyilmani ishlaganda uning kompozitsiya markazini topib, o'quv quyilma ifodaviyligini yanada yaxshi qilib ta'minlash mumkin. Bunda kompozitsiya markaziga urg'u beruvchi rang va tus munosabatlariga murojaat etiladi. Ular bo'rttirib tasvirlanadi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy vositalar, imkoniyatlar juda ko'p faqat ularni o'z o'rnida ustalik bilan qo'llashni bilish kerak. Mahoratni, nazariy va amaliy bilimlarni oshirish uchun ko'p mashq qilish, izlanish, mehnatdan qochmaslik kerak. Shunda ham o'quv mashqlar, ham ijodiy ishlar sifati kafolatlanadi. Bugungi talaba ertaga nafaqat yaxshi mutaxassis rassom-pedagog balki ijodkor-musavvir bo'lib etishar, bu esa uning intilishlariga, harakatiga bog'liq. Muhimi, talaba o'z o'qituvchisi tomonidan qo'yilgan har bir vazifani to'liq va bekamuko'st, vijdonan bajarishi lozim.

Savollar:

1. Mavzuli-voqeaband qo'yilmalar qanday, nimalarga amal qilgan holda tashkil qilinadi va ishlanadi?

2. Inter'erda va «plener»da tashkil etilayotgan mavzuli-voqeaband qo'yilmalarning qanaqa farqli tomonlari bor?

3. Qo'yilma xonada tashkil etilganda undagi perspektiva qonun-qoidalarining tadbiqu qanday, tasvir ko'rinishlari qanaqa o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi?

Tayanch tushunchalar.

Kompozitsiya— asar yoki chizilgan biror tasvirning markazi asosiy e'tiborni tortuvchi qismi, rassom tomonidan bo'rttirib ko'rsatilgan joyi.

Inter'er — (frants.) binolarning ichki qismi.

Lspoktlarla— turli jihatlardan turib nazar solish, nuqtai nazar, turli ko'rinishlarda yoidashish.

Glanlar — tasviri chizilayotgan ob'ektlarning chizuvchiga nisbatan uzoq-yaqinligi, masofasi, ularning tasviri.

Mavzuli—biror voqeani aks ettiruvchi mavzudagi noqshband ijodiy tasviriy asar, kompozitsiya.

O'quv qo'yilma— o'rganish (chizish, tasvirlashni) uchun maxsus tashkil etib qo'yilgan, buyumlar, natyurmort, yoki tasvir ob'ekti (odam).